

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi

2018 yilning yanvar – mart oylarida QURILISH ISHLARI

•
•
•

RAQAMLAR:

- Qurilish ishlari hajmi - **521,7 mlrd.so'm**
- Yirik qurilish-pudrat tashkilotlari ulushi - **5,7 %**
- Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi - **64,9 %**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi - **29,4 %**

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Fag'ona viloyatida jami **521,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,8** foizni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **29,8** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,7** foiz hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **64,0** foizni tashkil etdi.

Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,9 foizi yoki **338,4** mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **110,4** foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **29,4** foiz yoki **153,5** mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,1 foizni tashkil etdi.

Ishlar hajmi,
mlrd.so'm

JAMI QURILISH ISHLARIDAN:

O'sish sur'ati,
foizda

29,8

YIRIK PUDRAT TASHKILOTLARI

64,0

338,4


KICHIK TASHKILOTLAR VA MIKROFIRMALAR

110,4


153,5

NORASMIY SEKTOR

136,1




FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurılısh ishlarining asosiy qismi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurılısh ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurılısh ishlari hajmining 80,5 foizini tashkil etdi va o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurılıshi va ixtisoslashtirilgan qurılısh ishlari hajmi joriy davrda 6,7 foizni tashkil etib, o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 punktga kamaydi.


Boshqa pudrat ishlari hissasiga esa 12,8 foiz to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 punktga kamaydi.




YANVAR-MART OYLARIDA QURILISH ISHLARINING FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA TARKIBI



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,9 foizni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 punktga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 62,7 foiz (7,4 punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 36,4 foizni (8,0 punktga kamaydi) tashkil etdi.




2018 YILNING JANVAR-MART OYLARIDA QURILISH ISHLARINING FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA TARKIBI




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 18,7 foizni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,4 punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 79,7 foiz (16,2 puktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 1,6 foizni (2,7 puktga kamaydi) tashkil etdi.


Boshqa qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 15,3 punktga kamaydi va 29,4 foizni tashkil etdi. Qolgan 70,6 foiz kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 15,3 punktga ko'paydi.




HUDUDLARDA 2018 YILNING JANVAR-MART OYLARIDA QURILISH ISHLARINING O'SISH SUR'ATLARI (2017 yil yanvar-mart oyiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Oltiariq tumani hamda Buvayda tumanlari kuzatildi. Ushbu hududlarda yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan mos ravishda 176,8 va 159,1 foiz bo'lislidini ta'minladi.



HUDUDLARDA 2018 YILNING YANVAR-MART OYLARIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING HAJMI (mlrd.so'm)



Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul

Sh.Tursunov

Aloqa telefoni

(73)-241-72-75